

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
366 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik

Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilivich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	



DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI RESURLARINI BOSHQARISH VA SAMARALI FOYDALANISH YO'NALISHLARI



Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Davlat moliyasi va xalqaro moliya” mutaxassisligi magistranti
ORCID: 0009-0007-7632-3868

Annotatsiya: Mazkur maqolada budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishning maqsadi – jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni budjet mablag'laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlash masalasi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining mohiyati, tashkil etilishining sabablari, tarkibi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: budjet mablag'lari, budjet parlamenti, konsolidatsiyalashgan budjet, maqsadli jamg'arma, g'aznachilik tizimi, davlat budjeti.

Abstract: The purpose of the organization of extra-budgetary funds is to secure expenditures of importance to society from independent sources other than budgetary funds, as well as the nature of state-purpose funds, the reasons for their formation, their structure and social-economic importance. All the above questions are revealed in this article.

Keywords: Budget funds, budget parliament, consolidated budget, trust fund, treasury system, state budget.

Аннотация: В данной статье рассматривается цель организации внебюджетных фондов, её расходы, имеющих значение для общества, за счет самостоятельных источников, кроме бюджетных средств, а также характер фондов государственного целевого назначения, причины их образования, их структура и социально-экономическое значение.

Ключевые слова: Бюджетные средства, бюджетный парламент, консолидированный бюджет, целеустремленный фонд, казначейская система, бюджет государства.

KIRISH

Davlat maqsadli jamg'armalari – iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va strategik maqsadlarni amalga oshirishda muhim moliyaviy vositalardan biridir. Ular davlat budjeti resurslariga qo'shimcha ravishda aniq maqsadlarga yo'naltirilgan moliyaviy manbalarni shakllantirish va samarali boshqarish imkonini beradi. Bunday jamg'armalarning faoliyati nafaqat iqtisodiy resurslarning oqilona taqsimlanishini, balki dolzarb ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni ta'minlash orqali jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq davlat maqsadli jamg'armalari resurslarining boshqaruvi va ulardan foydalanish samaradorligi masalalari ko'plab rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Moliyaviy resurslarning noto'g'ri yo'naltirilishi, byurokratik to'siqlar, nazorat

mexanizmlarining zaifligi va shaffoflikning yetishmasligi jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini pasaytiradi. Shu sababli davlat maqsadli jamg'armalarini samarali boshqarish va ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida optimallashtirish muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Ushbu maqolada davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish tizimi, mavjud amaliyotdagi kamchiliklar, ilg'or xorijiy tajribalar hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha taklif va yo'nalishlar tahlil qilinadi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad – mavjud resurslardan maksimal iqtisodiy va ijtimoiy natijalar olish uchun samarali boshqaruv mexanizmlarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur izlanish, o'z navbatida, davlat moliya tizimining barqarorligini mustahkamlash hamda maqsadli jamg'armalarning ochiqlik va natijadorlik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish, budjetdan tashqari mablag'lar va jamg'armalar hisobini yuritish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, T. Poleshchuk va O. Mitina budjet tashkilotlarining asosiy funksional vazifalari, buxgalteriya hisobi obyektlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lar hisobi [3] bo'yicha o'zlarining ishlanmalarini amalga oshirgan. Wan Zuriati Wan Zakaria boshchiligidagi tadqiqotchilar Malayziyaning davlat sektorida buxgalteriya hisobi axborot tizimidagi belgilangan vazifalarning samaradorligi [4] bo'yicha izlanishlar olib borgan. Mamlakatimiz olimlaridan S.U. Mehmonov budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish [5] borasida izlanish olib borgan.

Biroq, bugungi kunga kelib davlat tibbiyot tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari buxgalteriya hisobi va uni takomillashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Davlat tibbiyot tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish, normativ-huquqiy hujjatlar talablari va amaldagi holat yuzasidan tahlil va sintez, tizimli yondashuv, monografik kuzatuv hamda tahliliy usullardan foydalanilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida davlat maqsadli jamg'armalarining mohiyati, zarurligi va ahamiyati – ilmiy adabiyotlarni o'rganish usuli orqali, ularning tarkibi va tuzilishi – ilmiy bilishning sintez usuli orqali, davlat maqsadli jamg'armalarining zarurligi va ahamiyati esa konkretlashtirish usuli orqali o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tezkor o'zgarishlarga boy iqtisodiy sharoitlar ko'pincha boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bunday sharoitda budjet mablag'laridan foydalanish hukumat organlari tomonidan qonuniy asosda qat'iy tartibda tasdiqlanadi, budjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanishi va boshqaruvi esa asosan ijroiya organlari vakolatiga kiradi. Budjetdan tashqari jamg'armalar iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga tezkor moslashishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Budjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish zarurati va ularning maqsadga muvofiqligi, birinchi navbatda, budjet tangligi sharoitida yaqqol namoyon bo'ladi. Xarajatlarning daromadlardan ortib ketishi sharoitida moliyaviy resurslar manbalarini izlash bilan birga, mavjud resurslarni, jumladan, korxonalar, tashkilotlar va aholi mablag'larini qayta guruhlash ham zaruriyatga aylanadi. Shu kontekstda ma'lum tarmoqlar va sohalarning rivojlanishini ta'minlashda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ahamiyati beqiyosdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya va chuqur isloh etish jarayonida iqtisodiy jamg'armalar, xususan budjetdan tashqari fondlar, o'ziga xos strategik ahamiyat kasb etadi. Budjet mablag'lari orqali iqtisodiy sohalarga investitsiya kiritishning asosiy maqsadi – davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini saqlab qolish va u orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir. Bu holat ayniqsa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Budjetdan tashqari fondlar iqtisodiyotni barqarorlashtirishda dastlabki barometr sifatida qaraladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida bunday fondlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida davlat maqsadli jamg'armalarini shakllantirish tajribasida xalqaro amaliyotdan o'rganilgan usullar bilan birgalikda milliy ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ham inobatga olingan. Natijada ijtimoiy siyosat samaradorligi va ta'sirchanligi sezilarli darajada oshdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda shakllangan ayrim fondlar xorijiy davlatlardagi o'xshash strukturalarga mos kelsa-da, ko'pchiligi milliy iqtisodiy o'ziga xoslikni aks ettirib, bozor iqtisodiyotiga o'z yo'nalishimizni yaratganini tasdiqlaydi. Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohalarida yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishning ta'minlanishi esa aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va umumiy ijtimoiy farovonlikni yuksaltirish yo'lidagi ustuvor yo'nalish sifatida shakllangan.

Davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator strategik takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan, maqsadli jamg'armalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida ularga kapital qo'yilmalar va investitsiyalarni jalb etish zarur. Bu yo'l orqali jamg'armalarning davlat budjetidan doimiy moliyaviy yordam olishga ehtiyojini kamaytirish va ularning mustaqil moliyaviy asosda faoliyat yuritishini ta'minlash mumkin.

Ikkinchidan, O'zbekistonda budjetdan tashqari jamg'armalarning barqaror va uzluksiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohalarda mustahkam moliyaviy zaxiralar yaratish va resurs bazasini kengaytirish jamg'armalarning uzoq muddatli moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, mamlakatning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini samarali amalga oshirish uchun moliya tizimi barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy yo'nalishdagi yangi maqsadli jamg'armalarni shakllantirish muhimdir. Bunday jamg'armalar, ayniqsa, pandemiya, tabiiy ofatlar yoki global iqtisodiy inqirozlar kabi favqulodda holatlarda strategik ahamiyatga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, budjetdan tashqari jamg'armalarning faoliyatini davlat moliyaviy siyosati va davlat hokimiyati organlarining moliyaviy siyosati bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Bu, moliyaviy resurslardan foydalanishda yaxlit yondashuvni shakllantirib, iqtisodiy siyosatning izchil va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Beshinchidan, mamlakat moliyaviy qonunchiligiga jamg'arma daromadlarini optimallashtirish va moliyaviy resurslardan foydalanish bo'yicha javobgarlikni kuchaytiruvchi o'zgartishlar kiritish zarur. Bu esa jamg'armalar faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Oltinchidan, budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining maqsadli va standartlarga muvofiq ishlatilishini ta'minlash maqsadida nazorat tizimini mustahkamlash zarur. Xususan, dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni kuchaytirish uchun mavjud g'aznachilik tizimining salohiyatidan kengroq foydalanish tavsiya etiladi.

Yettinchidan, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish va fuqarolar tomonidan ixtiyoriy badallar asosida shakllantiriladigan pensiya tizimini rag'batlantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Garchi ushbu masala ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ijtimoiy himoya mexanizmlarini yanada kuchaytirish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyot darajasi oshgani sayin, budjetdan tashqari jamg'armalarning roli va ahamiyati ham ortib bormoqda. Bu esa ushbu fondlarning mohiyatini ilmiy asosda chuqur anglash, ularning vazifalarini aniqlik bilan belgilash va jahon tajribasidan samarali foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda uchta asosiy yo'nalish qo'llaniladi: davlat tomonidan kafolatlangan minimal pensiya tizimi; ish beruvchilar tomonidan professional assotsiatsiyalar orqali shakllantiriladigan qo'shimcha pensiya tizimi; hamda fuqarolarning shaxsiy tashabbusi asosida tashkil etiladigan xususiy pensiya jamg'armalari. Bunday tizimlar AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya va Italiya kabi rivojlangan davlatlarda keng qo'llanilib, yuqori darajadagi moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy himoyani ta'minlab kelmoqda [6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjetdan tashqari jamg'armalar tizimini isloh qilish hamda uni shakllantirish va sarflash bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etish maqsadida quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, mamlakatda xususiy (nodavlat) nafaqa jamg'armalarini shakllantirish zarurati mavjud. Bunday jamg'armalarning tashkil etilishi uchun ularning faoliyat tartibini va boshqaruv mexanizmlarini belgilovchi maxsus qonun hujjatlarini ishlab chiqish talab etiladi. Ushbu jamg'armalarning investitsion faoliyati esa mustaqil boshqaruvchi kompaniyalar orqali amalga oshirilishi lozim, bu esa mablag'larning samarali boshqarilishini va xavfsizligini kafolatlaydi.

Ikkinchidan, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish zarur. Xususan, xayriya tashkilotlari va homiylik mablag'larini safarbar etish orqali kam ta'minlangan oilalar uchun ajratiladigan ijtimoiy to'lovlar hajmini va qamrovini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchidan, ayrim turdagi nafaqa to'lovlari va imtiyozlarni bekor qilish orqali bo'shagan moliyaviy resurslarni ijtimoiy ehtiyojmand oilalarga mo'ljallangan manzilli nafaqa to'lovlari uchun yo'naltirish maqsadga muvofiq. Bu chora mablag'larning ijtimoiy adolat tamoyillariga mos ravishda taqsimlanishini ta'minlaydi.


To'rtinchidan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini oshirish maqsadida, ijtimoiy zaif qatlamlarga, xususan, mehnat salohiyati to'liq ishga solinmagan kam ta'minlangan oilalarga kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Shu maqsadda mikromoliyalashtirish institutlarining faoliyatini kengaytirish, ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.

Beshinchidan, budjetdan tashqari fondlar, xalqaro rivojlanish loyihalari va xorijiy donorlar ishtirokida ixtisoslashgan ijtimoiy investitsiya fondini tashkil etish masalasini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bunday fond ijtimoiy himoya, bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirish sohalarida aniq maqsadli loyihalarni moliyalashtirish uchun samarali moliyaviy platforma sifatida xizmat qiladi.

Shu tarzda budjetdan tashqari jamg'armalar faoliyatining takomillashuvi moliyaviy resurslarning maqsadli va oqilona taqsimlanishini ta'minlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Полешук Т.А.Б, Митина О.В. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях.
2. Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A survey on the impact of Accounting information system on tasks efficiency: Evidence from Malaysian public sector Agencies. International Review of management and marketing ISSN: 2146-4405.2017, 7 (1) 183-190.
3. <https://ask.orkg.org/item/585458681/Davlat-maqsadli-jamg'armalari-moliyaviy-resurslaridan-samarali-foydalanish-yo'nalishlari>
4. Wan Zuriati Wan Zakaria, Norazlina Ilias, Norlidawahi Wahab. A survey on the impact of Accounting information system on tasks efficiency: Evidence from Malaysian public sector Agencies. International Review of management and marketing ISSN: 2146-4405.2017, 7 (1) 183-190.
5. Mehmonov S.U. "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metadalogiyasini takomillashtirish" i.f.d. diss. Avtoref. 76.b. - T.,2018.
6. Остонакулов М. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. – Т.: 2006.
7. Вахобов А., Сирождиддинова З. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. – Т.: ТФИ, 2002.
8. Кондраков Н.П., Кондраков И.Н. Бухгалтерский учет в бюджетных организациях. – М.: Проспект, 2006.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100